



AGRONOM

GAZETA 1956 YILDAN
CHIQA BOSHLAGAN

19.10.2010 yil
№03-068 raqam bilan
ro'yxatga olingan

№ 5 (803) may 2020 YIL

TOSHKENT DAVLAT AGRAR UNIVERSITETI

ТОШКЕНТ ДАВЛАТ АГРАР УНИВЕРСИТЕТИ ЖАМОАСИ ҲАМ САРДОБАЛИКЛАР ОРАСИДА

Жорий йилнинг 1 май куни Сардоба сув омборида юзага келган талофат ва сув тошқини оқибатларини бартараф этиш бўйича Ҳукумат комиссияси ташкил этилиб, аҳолини хавфсиз ҳудудларга эвакуация қилиш ва уларга ҳар томонлама ёрдам бериш бўйича барча чора-тадбирлар кўрилмоқда. Барча жараёнлар давлатимиз раҳбарининг назорати остида.

Ушбу юзага келган воқеаларга Тошкент давлат аграр университети жамоаси ҳам бефарқ қараб тура олмай, вазиятда азият чеккан юртдошларимиз билан бирга бўлиш, уларга ҳар томонлама маънавий ва моддий ёрдам кўрсатиш мақсадида университетнинг Ўқув ишлари бўйича проректори С.Исламов бошчилигидаги 15 нафар профессор-ўқитувчилар ва докторантлардан ташкил топган ишчи гуруҳ вакиллари Сирдарё вилоятининг Сардоба, Мирзаобод ҳамда Оқолтин туманларидан эвакуация қилиниб Сардоба туманидаги Пахтаобод қишлоқ хўжалик касб-ҳунар коллежи ҳамда 21-сонли умумий ўрта таълим мактаби ҳамда Жиззах вилоятининг Дўстлик тумани Манас қишлоқ фуқаролар йиғини ҳудудида жойлашган 5- ва 12-сонли умумий ўрта таълим мактабларига жойлашган аҳоли вакиллари билан учрашиб, уларнинг ҳолидан хабар олишди.



3-4 май кунлари ишчи гуруҳ томонидан аҳоли ўртасида мавжуд муаммолар ҳамда қийнаб келаётган саволларини ҳар томонлама ўрганиш мақсадида анкета сўровнома асосида суҳбат ўтказилиб, сўровнома натижалари махсус интернет тизимида ташкил этилган базага киритилиб борилмоқда, шунингдек, аҳоли вакилларига ўзлари томонидан олиб борилган иссиқ кийим бош, кўрпа-тўшак ва бошқа кундалик эҳтиёж учун зарур бўлган буюмларни тарқатишди.

ИСРОИЛОВ С.У.

Инакчилик ва тутчилик факультети Ёшлар етакчиси.

УРУШ ФАҚАТ ТАРИХ САҲИФАЛАРИДА ҚОЛСИН!

Ёш қизчанинг афғон урушида қатнашган отаси ҳақидаги юрак ва дил сўзлари

Ҳа, мен уруш нима эканлигини билмайман. Билишни ҳам истамайман. Лекин тарих китобини, тарихий воқеликларни ўқиганимда, кўрганимда бу дунёда ҳеч бир нарса ҳикматсиз бўлмаслигига амин бўламан. Отангни отаси, бобонг, уларни бобоси ким бўлган нима иш билан шуғулланган?! Бу каби қизиқишлар уруш нималигини билишни истамайдиган ҳар бир тенгдошимнинг фикрини, ўй-хаёлини ора-сира чалғитиб туриши сир эмас. Улар кимлигини ўргана туриб, тарих чизиғи ўз-ўзидан уруш йилларига ҳам бориб тақалади.

Иккинчи жаҳон уруши. Боболаримиз таъбири билан айтганда улуғ ватан уруши. Неча минг ўзбек жонлар фидо бўлган уруш. Шу билан бирга неча минг жонларни оила аталмиш муқаддас масканга эга қилган уруш.

Урушнинг миллати бўлмайди. Шу каби тинчликни ҳам. Иккинчи жаҳон уруши йилларини кўрган ёши улуғ отахон ва онахонларимизнинг тилидан турли ҳаётий ҳикояларни эшитамиз. Кимдир уруш сабаб, тутқунликда, колонияда чеккан азобини унутмайди. Оиласидан ажраб қолганини оғир хўрсиниш билан ёдга олади. Яна кимлардир уруш сабаб оиласини йўқотган бўлса-да,

бағрикенг инсонлар билан учрашгани, уларнинг оиласида фарзанди, жигари каби униб ўсганини хотирлайди. Лекин барчасининг гапида сўнгги ниҳоя бир хил бўлади. “Сизлар уруш кўрманглар болаларим. Урушнинг номи ўчсин дунёдан”.

Лекин одамлар, давлатлар манфаатида урушлар давом этиб келаверади. Кимдир азага киради кимдир бу даврда маза қилади. Албатта бу синовли дунёда ҳамма яхши яшаб ўтишга интилади ҳаракат қилади.

Сўзим бошида уруш нималигини билишни истамайман дедим. Чунки менинг дадам афғон уруши қатнашчиси. Уларнинг кўлларида қолган ўқ изи мени қайғуга солади. Ана шу жароҳат дадамниям юрагида чизилгандек туюлади менга. Дадам ҳам уруш ҳақида, ундаги азоб-укубатлар ва кечмишлари ҳақида гапиришни унчалик ёқтирмайди. Демак эслашни истамайди. Мен ҳам уларнинг иродасига қарши бормаган ҳолда, урушни билишни истамайман.

Янаям ўйлашимча дадам бизда фақат яхши кайфият ва чиройли ўй-фикрлар ичида яшашимизни истаса керак. Лекин уруш ҳақидаги киноларни ёлғиз кўришларидан сезаманки, кўз

ёшларини, армон ва аламларини бизга кўрсатгилари келмайди.

Нима бўлганда ҳам мен дадам билан фахрланаман. Уруш вақтида катта жасорат кўрсатганларини ойимдан оз-моз эшитганман. Лекин биламанки, уруш ҳеч ким боришни ва кўришни истамайдиган воқелик. Айниқса, давлатлар ва миллатлар манфаати кўзланган уруш жуда ҳам хавфли.

Юртимизда ана шу урушда вафот этган аждодларимизни ёд этиш, уларни хотирлаш мақсадида “Хотира ва қадрлаш куни” кенг нишонланади. Ўша куни ҳам уларга айтиладиган тилаклар бир хил “Кўрган кечирганингиз шу бўлсин. Дунёда уруш бўлмасин”.

Мен бутун дунё болаларининг кулгуси жаранглаб турадиган, эртанги кунига умид ва ишонч билан боқадиган тинчлик замони тезроқ келишини истаيمان. Бутун дунё тинчлик ва меҳр-оқибат бобида Ўзбекистон бўлишини истаيمان. Уруш нималигини билишни ҳам, кўришни ҳам хоҳламайман.

Урушларда қатнашган фидойи, мард, жасур ота боболаримизга чуқур тазим қилган ҳолда шуни баралла айтаманки: *“Мен учун, келажак авлод учун ҳам уруш деган нарса катта авлоднинг эртанги каби ўтган замондаги ҳикояси ва тарих китобларида, вароқларда қолсин”.*

Умарбекова Гулнора

Тошкент давлат аграр университети ўқитувчиси

Каршибаева Умида

1-71 гуруҳ талабаси

XOTIRA!

Har gal ulug'larimiz duoga qo'l ochishar ekan Yaratgandan tan sog'ligi, omonlik va albatta tichlik – xotirjamlik so'raydilar. Bu ham bejizga emas. Zero omonlik va tichlik farovon hayotning mustahkam ustunidir. Bir necha kunlar avval 9 may – Xotira va Qardlash kuni ham bo'lib o'tdi. Oynai jahon orqali ayovsiz urush yillarining og'riqli hamda musibatli kunlariga bag'ishlangan qator kinofilm hamda ko'rsatuvlar teleekranlarda yoritildi. O'tganlar xotirasi yana bir bor yodga olindi. Bugun siz aziz mushtariylar bilan ham oz fursat bo'lsada shu mavzu hususida dildan suhbat qilishga bel bog'ladik. Beayov urush yillarini boshidan o'tkazgan bobo va momolarimizdan yoshlik yillaringizni bir xotirlab bering deb so'ralsa o'rtaga mungli bir sukunat cho'kib ko'zlari ma'yus tortgancha bir xo'rsinib qo'ygach "urushning nomi o'chsin bolam" deya uzoq o'yga cho'mib qolganliklarini guvohi bo'lamiz. Urush, tinchlik va xotira ajralmas tushunchalardek go'yo. Urush bo'lsa tichlik uchun jang qilinadi. Shu jang uchun jon fido etganlar nomi esa o'chmas xotira bo'lib qoladi.

Urush minglab, millionlab insonlarning umriga zomin bo'lgan musibatdir. Farzandlarni ota-onadan ayirgan, beshikdagi begunoh go'daklarga yetimlik taqdirini bitgan, oilalarni parokanda qilgan musibatdir. Kimdir farzandining, yana kimdir suyuqli yorining urushdan sog'-omon qaytishini kutgancha umr o'tkazdi. Ona zamin necha-necha pahlavon va mard, hali navqiron ko'zlarida hayotga, yashashga umid bo'lgan o'g'lonlarni bag'riga oldi. Insonlarni nafaqat och-naxorlik balki har soniyasi qo'rquv ila o'tgan kun, ko'z yosh ila kechgan tunlar ham madorlarini quritdi. Bugun siz-u biz yashab turgan tinch – osuda hayotning ortida ham o'sha minglab begunoh insonlarning erta so'ngan umrlari yotadi. Ular nafaqat oilalari balki ona vatan, kelajak avlod ya'ni siz-u biz uchun ham mardonavor jang qildilar. Bu o'chmas nomlarni nafaqat bir kun aksincha umrimizning har kunida yodga olish mumkin. Qonli jang maydonida qo'lga qurol olib jang qilgan askarning ko'nglidan nimalar kechgan ekan... Shu musaffo osmon, unda qanotini keng yoygancha erkin parvoz etayotgan qushlar, farzandlarning quvnoq kulgusi, tinch-osuda kechayotgan tun-u kunlarimiz yurt uchun qon kechgan o'g'lonlarning qurbon bo'lgan umrlari evazigadir. Bunga vatan sababchi deysizmi? Yo'q, yo'q yanglishasiz. Xuddi ona singari vatandan ham ta'na qilinmaydi. Bu zamon charxpalagi, dunyoni da'vo qilgan johillarning istagi edi xolos.

Mashxur fransuz yozuvchisi hamda faylasufi Jan Pol Satrning "Shayton va Xudo" nomli komediyasida shunday ajoyib jumla bor: "Boy va badavlat insonlar urushni yuzaga keltirsalar bu urushning jabrdiydalari oddiy xalqdir". AQSh ning 31 - prezidenti Gerbert Guver esa o'z nutqida "urushni e'lon qiluvchilar kattalar unda qurbon bo'luvchilar esa yoshlardir" degan ekan. Insoniyat urushni yo'q qilishi lozim aks holda urush insoniyatni yo'q qiladi. Insonlar avvalombor ongli ravishda urushdan voz kechishi lozim. Zalolat va musibat bo'lgan urushning har bir sahifasi qonli bitiklardan iboratligi, u sabab orttirilgan talofat-u jarohatlar asrlarga tatigulik ekanligi anglab yetilgan ondanoq insoniyat undan butkul voz kechadi va yo'q qila oladi.

21 sentyabr Xalqaro Tinchlik kuni deb e'lon qilingan. Tinchlik avvalo qalbimizdan boshlanadi. Osuda qalb oila tinchligiga, osoyishta oila esa yurt tinchligiga kafil bo'ladi desak mubolag'a bo'lmaydi. Vatan tinchligi yo'lida jon fido qilgan qatog'on qurbonlarini xotirlar ekanmiz ruhingiz shod, nomingiz barhayot bo'lsin deymiz.



*Narmatova Umida.
Erkin tadqiqotchi.*

YOSHLAR ODAM SAVDOSIGA QARSHI!

*«Hech kim qullikda yoki erksiz holatda saqlanishi mumkin emas;
qullik va qul savdosining barcha ko‘rinishlari taqiqlanadi».*

(Inson huquqlari umumjahon Deklarastiyasi, 4-modda).

**SHIOR: Odam savdosi – global muammo,
unga qarshi kurashishda xalqaro hamkorlik va birdamlik darkor.**

I.A.Karimov

Mamlakatimizning jahon hamjamiyatida ijtimoiy siyosiy va iqtisodiy salohiyatining nufuzi kundan-kunga ortib borishining sharti, hozirgi kunda bozor iqtisodiyotiga asoslangan kuchli fuqarolik jamiyatini qurish jadallik bilan amalga oshirilishida namoyon bo‘lmoqda. Fuqarolarimizning mehnat qilish, dam olish, bilim olish, malakali tibbiy xizmatdan foydalanish kabi konstitustiyaviy huquqlarini erkin amalga oshirishi, millatlar va davlatlar o‘rtasida erkin iqtisodiy, madaniy, ma’rifiy aloqalarni o‘rnatishga xizmat qilmoqda.

Mamlakatimizda fuqarolarning bu kabi huquqlarining kafolatlanishi esa, ko‘plab fuqarolarning xorijiy mamlakatlarga bemalol chiqishlari uchun imkoniyat va etarli shart-sharoitlar yaratdi. Buning natijasida xalqaro migratsiya jarayonlari birmuncha faollashdi, fuqarolarning mehnat qilish, ta’lim olish, turizm va shu kabi turli maqsadlarda boshqa davlatlarga chiqishi, erkin faoliyat olib borishi uchun imkoniyatlar yanada kengaydi. Afsuski, ayrim shaxslar mamlakatimizda yaratilgan bunday shart-sharoit va imkoniyatlardan g‘arazgo‘ylik maqsadlarida foydalanib, fuqarolarimizdan foydalanish uchun, ularni aldov va boshqa past niyatlarini amalga oshirish, xorijga olib chiqib, ularning mehnati, bilimi va eng achinarlisi esa tana a’zolaridan, shuningdek, bu kabi shaxslardan shahvoniy maqsadlarda foydalanish kabi jirkanch holatlar ko‘payib ketishiga ham sabab bo‘ldi. Buning oqibatida ko‘pgina fuqarolarimiz boshqalarning “manfaatlari” qurboniga aylanmoqda. Mamlakatimiz Prezidenti o‘sib kelayotgan yoshlarnibunday tahdidlardan himoya qilish, ularning dunyoga ochiq ko‘z bilan qarash ko‘nikmalarini egallashida ma’naviy-mafkuraviy tarbiyaning roli beqiyos ekanini alohida ta’kidlaydi: “Faqat jismoniy jihatdan baquvvat bo‘lgan odamni tarbiyalash unchalik qiyin emas. Ammo uni ham jismonan, ham ma’naviy jihatdan kamol toptirish g‘oyat murakkab vazifa. Ayniqsa bugungi kunda - mafkuraviy kurashlar goh oshkora, goh pinhona tus olgan hozirgi nozik, qaltis sharoitda, tahlikali zamonda bu masala nihoyatda dolzarb ahamiyatga ega”. Odam savdosining qurboni bo‘lgan bolalar uzoq muddat mobaynida ta’lim olish imkoniyatiga ega bo‘lmaydilar, natijada ular tutkunlik kishanidan katta yoshda qutilganlarida bu imkoniyatdan bebahra qoladilar. Bunga qo‘shimcha, ular normal hayotga qaytgandan so‘ng ham, ma’lumoti bo‘lmaganligi sababli, yaxshi haq to‘lanadigan ishga kira olmaydilar. Bundan tashqari, odam savdosi har yili jinoiy sindikatga ulkan daromad keltirib, xalqaro jinoyatchilik, jumladan terrorizmni ham moliyalashtiruvchi asosiy manbalardan biri hisoblanadi. “Odam savdosiga qarshi kurashish to‘g‘risida”gi O‘zbekiston Respublikasining Qonunida odam savdosi jinoyatining tushunchasiga quyidagicha ta’rif berilgan. Odam savdosi — bu kuch bilan tahdid qilish yoki kuch ishlatish yoxud boshqa majburlash shakllaridan foydalanish, o‘g‘irlash, firibgarlik, aldash, hokimiyatni suiiste’mol qilish yoki vaziyatning qaltisligidan foydalanish orqali yoxud boshqa shaxsni nazorat qiluvchi shaxsning roziligini olish uchun uni to‘lovlar yoki manfaatdor etish evaziga og‘dirib olish orqali odamlardan foydalanish maqsadida ularni yollash, tashish, topshirish, yashirish yoki qabul qilishni, shuningdek, odamlardan foydalanish maqsadida boshqa shaxslarning fohishaligidan foydalanishni yoki ulardan shahvoniy foydalanishning boshqa shakllarini, majburiy mehnat yoki xizmatlarni, qullik yoki qullikka o‘xshash odatlarni, erksiz holat yoxud inson a’zolari yoki to‘qimalarini ajratib olishni anglatadi.

Odam savdosi qadimdan mavjud bo‘lgan jinoyatlardan biridir. Tarixga nazar soladigan bo‘lsak, antik davrda odam savdosi oddiy hol bo‘lgan. Bunda savdo-sotiq ob’ekti – inson qul maqomida bo‘lgan.

(Davomi 5-sahifada)

(4-sahifaning davomi)

Inson huquqlari bo'yicha lug'atdagi ta'rifda qulchilik (Slavery) deganda, o'z ish beruvchilarini tanlashda mustaqil bo'lmagan, mulk yoki ashyo sifatida bozorda sotib yuborilishi mumkin bo'lgan shaxsning hayot sharoiti va maqomi tushuniladi. XVII asrda Amerikaga qullar Afrikadan keltirilishi bilan odam savdosi yanada avj oldi. Odam savdosiga qarshi kurashish bo'yicha OBSE vakili Xelga Konradning ta'kidlashicha, har yili 200 mingdan 500 minggacha kishi odam savdosi bo'yicha g'arbiy Evropa davlatlariga olib kiriladi. Ular ichida ayollar 60%ni, erkaklar 40%ni tashkil etadi.

Vakil har yili odam savdosidan olinadigan foyda 10-15 milliard dollarni tashkil etishini ta'kidlaydi. Odam savdosi bu jinoiy zanjir, uning kichik bo'g'inidan boshlab so'nggisigacha kurashish kerak. Faqat shundagina muvaffaqiyatga erishish mumkin. Odam savdosi bir vaqtning o'zida ham jinoyat huquqi, ham inson huquqlari himoyasi masalasidir". Odam savdosi, ya'ni, odamni olish – sotish yoxud odamni undan foydalanish maqsadida yollash, tashish, topshirish, yashirish yoki qabul qilish kabi harakatlarni o'z ichiga oladi. Odamlardan foydalanish – boshqa shaxslarni fohishaligidan foydalanish yoki ulardan shahvoniy foydalanishning boshqa shakllari, majburiy mehnat yoki xizmatlar, qullik yoki qullikka o'xshash odatlar, erksiz holat yoxud inson a'zolari yoki to'qimalarini ajratib olishni o'z ichiga oladi.

Odam savdosining ob'ekti shaxsning shaxsiy erkinligidir. Ushbu holatda jinoiy javobgarlikning muqarrirligi shaxs erkinligining kafolatidir. Jinoyatning ob'ektiv tomoni esa, odam savdosi ya'ni, shaxsni ekspluatatsiya qilish maqsadida olish-sotish, yollash, tashish, topshirish, yashirish, yoki qabul qilish. M.X.Rustamboev yozishicha odam savdosi jinoyatining ob'ekti avvalo shaxsning erkinligi, sha'ni va qadr-qimmatini kafolatlovchi ijtimoiy munosabatlar hisoblanadi. Jinoyatning og'irlashtiruvchi yoki alohida og'irlashtiruvchi



tarkiblarida jabrlanuvchilarning hayoti yoki sog'lig'i qo'shimcha ob'ekt sifatida namoyon bo'ladi. Chunonchi, shaxsning huquq va erkinliklari turli huquq sohaslarining normalari bilan himoya qilinadi, lekin jinoyat qonunlarida fuqarolarning huquq va erkinliklari buzilganligi uchun jinoiy javobgarlik belgilangan bo'lib, huquqning bu sohasi ana shu javobgarlikni qo'llash orqali fuqarolarning huquq va erkinliklarini himoya qiladi.

O'zbekiston Respublikasi Jinoyat kodeksida shaxsning ozodligi, sha'ni va qadr-qimmatiga tajovuz qilganlik uchun jinoiy javobgarlikni belgilovchi bir qator normalar mavjud. Demak, odam savdosi jinoyatining ob'ektini shaxsning ozodligini ta'minlovchi ijtimoiy munosabatlar tashkil etadi. Odam savdosi jinoyatining sodir etilishi natijasida shaxsning ozodligi, sha'ni va qadr-qimmatini jinoiy tajovuzlardan himoya qilish bilan bog'liq jinoyat qonuni bilan muhofaza qilinadigan ijtimoiy munosabatlar buzilishiga olib keladi.


Shaxsga qarshi jinoyatlarning xavflilik darajasi yuqori ekanligi va Konstitustiyamizda shaxsning oliy qadriyat sifatida e'tirof etilgan daxlsiz huquq va erkinliklarini himoya qilish davlatning asosiy vazifalaridan biri ekanligidan kelib chiqib, O'zbekiston Respublikasi Jinoyat kodeksi Maxsus qismining birinchi bo'limida "Shaxsga qarshi jinoyatlar" keltirilgan. Jinoyat kodeksimizning «Shaxsga qarshi jinoyatlar» bo'limida hayotga, sog'liqqa qarshi, hayot yoki sog'liq uchun havfli, jinsiy erkinlikka, oilaga, yoshlarga va axloqqa, shaxsning ozodligi, sha'ni, qadr-qimmatiga, fuqarolarning konstitustiyaviy huquq va erkinliklariga qarshi qaratilgan jinoyatlar uchun javobgarlik belgilangan bo'lib, bu jinoyatlar jamiyat uchun jiddiy xavf tug'diradi. Binobarin, O'zbekiston Respublikasi Jinoyat kodeksining 6 - bobida shaxsning ozodligi, sha'ni va qadr - qimmatiga tajovuz qiluvchi jinoyatlarni nazarda tutadi. Odam savdosi shaxsning ozodligi, sha'ni va qadr-qimmatiga tajovuz qiluvchi jinoyatlar ichidagi ijtimoiy xavflilik darajasi yuqori bo'lgan eng og'ir jinoyatdir.

Mamadaliyeva Sobira

Toshkent davlat agrar universiteti magistranti

"ОНЛАЙН КИТОБХОНЛИК"НИНГ II БОСҚИЧИ

Ўзбекистон Республикаси Президентининг 2019 йил 3 майдаги “Маънавий-маърифий ишлар самарадорлигини ошириш бўйича қўшимча чора-тадбирлар тўғрисида” ПҚ-4307-сон қарори ижросини таъминлашга қаратилган, олий ва ўрта махсус таълим тизимида маънавий-маърифий ишларнинг таъсирчанлигини ошириш, ёшлар маънавиятини юксалтириш ва уларнинг бўш вақтини мазмунли ташкил этиш бўйича 5 та ташаббус юзасидан, карантин даврида университет талаба-қизларининг бўш вақтларини мазмунли ташкил этиш, шунингдек, уларнинг дунёқараши ва фикрлаш доирасини кенгайтириш, ижодий салоҳиятини ошириш, маънавий баркамол шахс бўлиб вояга етишларида кўмаклашиш, иқтидорли, ижодкор ёшларни рағбатлантириш, китоб ўқишга бўлган қизиқишларини янада ошириш ҳамда ўзбек ва жаҳон адабиётининг сара асарларига меҳр уйғотиш мақсадида Тошкент давлат аграр университети ректорининг буйруғига асосан талаба қизлар ўртасида “Онлайн китобхонлик” танлови ўтказилиб, ғолиб бўлганлар Диплом ва сертификат билан тақдирланди.



Ғолиблар:

1-Ўрин: Абилқасимова Мадинабону – Ўсимликлар химояси, агрокимё ва тупроқшунослик факультети талабаси;

2-Ўрин: Фаниева Дилшода - Мева- сабзавотчилик ва узумчилик факультети талабаси;

3-Ўрин: Рахмонова Мафтуна - Мева сабзавотчилик факультети талабаси.

Онлайн “МОҲИР ПАЗАНДА – 2020”

Карантин даврида университет талаба-қизларининг бўш вақтларини мазмунли ташкил этиш мақсадида “Онлайн моҳир пазанда – 2020” танлови бўлиб ўтди. Танлов натижаларига кўра фаол иштирок этган талаба қизлар қуйидаги номинациялар билан тақдирландилар.

1. “Бош ошпаз эътирофи” номинацияси:

Махмадалиева Файзинисо Қишлоқ хўжалиги маҳсулотларини сақлаш ва қайта ишлаш факультети
Хуррамова Дилафруз Ўрмон хўжалиги ва ландшафт дизайни факультети

2. “Энг моҳир пазанда” номинацияси:

Икромова Мохинур Агробиология факультети
Иброҳимова Назокат Агрологистика ва инвестицион бизнес факультети

3. “Моҳир пазанда” номинацияси:

Шарипова Нафиса магистр 1 босқич
Аликулова Умида Агробиология факультети

4. “Энг уддабурон” номинацияси:

Халимова Зулфия Агробиология факультети
Абилқасимова Мадина Ўсимликлар химояси, агрокимё ва тупроқшунослик факультети

5. “Энг ораста” номинацияси:

Насруллаева Зулхумор Агробиология факультети
Раҳимова Мадина Қишлоқ хўжалиги маҳсулотларини сақлаш ва қайта ишлаш факультети

6. “Энг эпчил” номинацияси:

Фаниева Дилшода Мева-сабзавотчилик ва узумчилик факультети
Раимкулова Ирода Ўрмон хўжалиги ва ландшафт дизайни факультети

7. “Энг чакқон” номинацияси:

Ғанижоновна Шахзода Ўрмон хўжалиги ва ландшафт дизайни факультети

РАЙИМБАЕВА НИЛУФАР.

Ёшлар билан ишлаш маънавият ва маърифат бўлими услубчиси.

ТУҒИЛГАН КУН

Бугун кўшалок байрам. Ўзбекистон Республикаси Фанлар академияси президенти Бехзод Йўлдошев таваллуд топган кун.

Физика соҳаси дарғаси, олим, фан ва жамоат арбоби, юзлаб шогирдларнинг устози Бехзод Йўлдошев бугун муборак 75 ёшга тўлди.

Ана шундай кутлуғ дамларда академик Бехзод Йўлдошевнинг бугунги таваллуд айёми билан табриклаймиз!

Сизга узоқ умр, сиҳат-саломатлик ва оилавий бахт тилаймиз!

Илм-фан тараққиёти йўлидаги шарафли фаолиятингизда улкан муваффақиятлар ёр бўлсин!

Маълумот учун: Б.Йўлдошев 1945 йил 9 майда Тошкент шаҳрида таваллуд топган.

Физика соҳаси олими, фан ташкилотчиси ҳамда жамоат арбоби Бехзод Йўлдошев Тошкент давлат университети (ҳозирги Ўзбекистон Миллий университети) ва Москва давлат университетини тамомлаган.

У Америка физиклари жамияти аъзоси, Индиана, Вашингтон (АҚШ) ва Кембридж (Буюк Британия) университетлари фахрий профессоридир. Шунингдек, Бехзод Йўлдошев Ислон дунёси академияси академиги, Бирлашган ядро тадқиқотлари институти (Дубна шаҳри, Россия) фахрий доктори ҳам саналади. Халқаро ЭСО мукофоти лауреати.

Уч юздан ортиқ илмий иш ҳамда йигирма ихтиро муаллифи Бехзод Йўлдошев “Меҳнат шухрати” ордени билан мукофотланган.



Тошкент давлат аграр университети “Ўрмончилик” кафедраси профессори, қишлоқ хўжалиги фанлари номзоди Каландаров Мухитдин Махмудович 1957 йил 11-май куни Қашқадарё вилояти, Китоб туманида туғилган.

Мухитдин Махмудович Сизга узоқ умр, сиҳат-саломатлик, оилавий тинчлик, ишларингизда зафарлар тилаб қоламиз. Юзингиздан табассум ҳеч қачон аримасин. Омад доимий ҳамроҳингиз бўлсин. Яна бир бор туғилган кунингиз билан табриклаймиз!

Тошкент давлат аграр университети Ўсимликларни ҳимоя қилиш кафедраси профессор ўқитувчилари тамонидан Тошкент вилоятида етиштирилаётган қишлоқ хўжалик экинларини зарарли организмларидан ҳимоя қилишда кластерлар, фермерлар ва таморқа ер эгаларига амалий ёрдам бермоқда.

Жумладан ғаллачилик, пахтачилик, боғ ва сабзавот экинларини етиштириш ҳамда ушбу экинларда учрайдиган зараркундаларга қарши самарали кураш чоралари бўйича маслаҳат ва тавсиялар бериб келмоқда.



Тошкент давлат аграр университети жамоаси.

E'LON



Битирувчи курс талабалари диққатига!

Хабарингиз бор Тошкент давлат аграр университетида масофавий таълим платформаси (<http://moodle.tdau.uz/>) ишга тушди. Ушбу тизимдан ташқари битирувчи курс талабалари учун фанлардан тасдиқланган жадвал асосида якуний назоратлар онлайн шаклда <http://test.tdau.uz/> тизими орқали тест шаклида ўтказилади.

Якуний назорат вақтлари ва талабаларнинг тестга кириш учун логин паролллари факултет телеграм каналларида эълон қилинган.

Ахборот технологиялари маркази

Navbatdagi vebinarimiz yosh chorvadorlar uchun!

Sizlarni 2-may soat 21:00 da Toshkent davlat agrar universiteti talabasi Veterinar shifokor va osemenator Akramjon Sobirov ishtirokidagi "Egizak buzoq olish sirlari" nomli navbatdagi bepul vebinarimizga taklif etamiz.

Akromjon Sobirov Avstriya, Germaniya, Rossiya va boshqa davlatlarda amaliyot o'tagan eng yosh veterinarlardan biri.



Хайрия акцияси

Хурматли профессор-ўқитувчилар, ишчи ходимлар ва азиз талабалар Ўзбекистон Республикаси Қишлоқ хўжалиги вазирлиги Тошкент давлат аграр университетида "Коронавирус" пандемияси ҳамда ҳудудларда содир бўлаётган табиий офат оқибатларини бартараф этишга кўмаклашиш учун университетимизда "Хайрия акцияси" старт олди. Барчангизни "Хайрия акцияси"да фаол иштирок этишингизга чорлаб қоламиз.

Тушган пул маблағлари:

1. "Коронавирус" пандемияси "Саховат ва кўмак" жамғармасига;
2. Сирдарё вилояти Сардоба тумани сув омборидан сув ёриб чиқиш натижасида юзага келган талофатларни бартараф этиш харажатлари учун;
3. Бухоро вилоятида юз берган табиий офат оқибатларини бартараф этиш учун йўналтирилади.

"Хайрия акцияси"га ўз ҳиссасини қўшмоқчи бўлганлар диққатига!

1. Юридик шахслар учун:

2312 0000 7000 0043 9002

МФО 00439

ИНН 201053901


АТ САВДОГАРБАНК.

2. Жисмоний шахслар нақд пул ўтказишлари учун:

2311 6000 2000 0043 9200.

3. Рауме ва Click орқали пул ўтказмалари учун:

9860 1401 0139 8224 (HUMO).

<p>«AGRONOM» MUASSIS: Toshkent Davlat agrar universiteti.</p> <p>O'zbekiston yoshlar ittifoqi Universitet Kengashi.</p>	<p>Gazeta Toshkent viloyati Matbuot va axborot boshqarmasi tomonidan 19.10.2010 y. №03-068 raqam bilan ro'yxatga olingan.</p> <p>ISSN raqami 2181-7782.</p>	<p>Muharrir: D.I.ALIMKULOV</p> <p>Musahhih: Sh.USMONOVA</p> <p>Tahrir hay'ati: ADILOV M.M., ASHUROVA F., MUHIDOVA Z., MIRSULTONOV M.</p> <p>agronom_gazetasi@umail.uz Tahririyat manzili: Toshkent vil. Qibray t. Universitet ko'chasi, 2 uy Gazeta TDAU Tahririyat-nashriyot bo'limida 500 nusxada chop etildi.</p>	 <p>Bosishga topshirilgan vaqt 28-may 2020-yil.</p>
---	---	--	---